

ADOLAT, BILIM VA INSON QADRI: YUSUF XOS HOJIB FALSAFASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15681581>

Azizbek Adashaliyev Zafarjon o‘g‘li

NamMQI Ijtimoiy fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

+998999770659

azizbekadashaliye1995@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-1716-774X>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u biling” asari asosida adolat, bilim va inson qadri kabi muhim falsafiy tushunchalar tahlil qilinadi. Muallif insoniyat tarixida adolat va bilimning o‘rnini, davlat boshqaruvida adolat tamoyillarining ahamiyati hamda ilmning inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: adolat, bilim, inson qadri, Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u biling”, falsafa, davlat boshqaruvi, axloqiy qadriyatlar, jamiyat taraqqiyoti, ma’rifat.

Annotation. This article analyzes key philosophical concepts such as justice, knowledge, and human dignity based on Yusuf Khass Hajib’s work *Qutadgu Biling*. The author explores the role of justice and knowledge in human history, the significance of justice in state governance, and the importance of knowledge in personal and societal development.

Keywords: justice, knowledge, human dignity, Yusuf Khass Hajib, *Qutadgu Biling*, philosophy, state governance, ethical values, social development, enlightenment.

KIRISH

So‘ngi yillarda islohotlarning ruhi va mazmuniga “Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun!” degan ezgu g‘oya chuqur kirib bormoqda. Mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minalashni nazarda tutamiz” – degan so‘zlari ham adolat, bilim, inson qadri kabi tushunchalar xalqimiz boy tarixida haqiqat mezonlari chuqur ildizga ega ekanligidan dalolat beradi [1, 56-b].

Tarix sahifalariga nazar tashlasak, ezgulik va adolat tamoyillariga tayanib yuritilgan siyosat har doim xalq va davlatning barqarorligini ta’milagan. Donishmandlarning fikricha, boshqaruvning muvaffaqiyatli bo‘lishi faqatgina kuch va qudrat bilan emas, balki insoniylik, bilim va fidoyilik bilan chambarchas bog‘liqidir.

Insoniyat tarixida bilim va adolat tushunchalari har doim markaziy o‘rinda bo‘lib kelgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u biling” asari ana shu qadriyatlarni

eng yuksak falsafiy nuqtai nazardan talqin etadi. Bu asar faqat siyosiy yoki ijtimoiy yo‘riqnomalar emas, balki insonning hayotiy yo‘li, axloqiy tamoyillari va ezgulik sari yo‘naltiruvchi ulug‘vor bir asardir.

METODOLOGIYA

Yusuf Xos Hojibning fikricha, davlat va jamiyat mustahkamligi adolat tamoyiliga bog‘liq. U adolatni koinot tartibining asosiy elementi sifatida ko‘radi. Asarda adolat timsoli Kuntug‘di obrazi orqali gavdalantirilgan. Uning fikricha, hukmdor adolatli bo‘lsa, jamiyat gullab-yashnaydi, aks holda esa inqirozga yuz tutadi. Bu g‘oya hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib, inson huquqlari va ijtimoiy tenglik muammolari bilan bog‘liq masalalarga javob beradi.

Asarda bilim insonni hayvonlardan ajratib turuvchi eng asosiy omil sifatida talqin etiladi. Bilim va zakovat O‘gdulmish obrazi orqali ifodalangan bo‘lib, u insonning qadrini belgilovchi eng yuksak fazilat ekanini ta’kidlaydi. Bilimli odam jamiyatga nafi tegadigan, odamlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydigan shaxsdir.

Yana bir hikmat bor: Hazrati odam –

Bilim, aql-u idrok sabab muhtaram.

Odamzod naslining ulug‘ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlami yechishga qodir. Uquv-idrok va bilim egasi bo‘lgan har qanday odam sharaflidir. [2, 15-b.] Bugungi kunda ham ilm-fan va ma’rifat taraqqiyotning muhim omili bo‘lib qolmoqda. “Qutadg‘u bilig” bu jihatdan nafaqat o‘tmish odamlari, balki zamonaviy insonlar uchun ham muhim yo‘riqnomadir.

Asarda qanoat tushunchasi ham alohida o‘rin tutadi. O‘zg‘urmish obrazi orqali inson o‘z naffsini tiyishi, hayotda me’yorni bilishi kerakligi uqtiriladi. Bugungi materialistik jamiyatda odamlar ko‘pincha boylik va qudrat ortidan quvishadi. Ammo haqiqiy baxt ichki xotirjamlik va ma’naviy boylikda ekanini Yusuf Xos Hojib aniq ko‘rsatib beradi. Qanoatli bo‘lish – insonni haqiqiy ozodlik va baxt sari yetaklovchi yo‘ldir.

TADQIQOT NATIJASI

“Qutadg‘u bilig” inson hayoti, jamiyat tartibi va axloqiy qadriyatlar haqida chuqur falsafiy fikr yuritadi. U insoniyatga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi yulduz misolidir. Adolat, bilim va qanoat kabi tushunchalar har qanday jamiyatda ham barqarorlik va taraqqiyotning garovi bo‘lib qoladi. Yusuf Xos Hojibning bu asari bugungi kun kishisi uchun ham dolzarb bo‘lib, bizni bilim, axloq va ma’rifat yo‘lidan yurishga undaydi.

Bilim insonning eng katta boyligi bo‘lib, uni egallagan kishi hayotning har bir jabhasida muvaffaqiyat qozonadi. Donolar ta’kidlaganidek, uquv-idrok insonni yuksak darajaga olib chiqadi, har qanday masalada uning to‘g‘ri yo‘lni topishiga yordam beradi. Axloq muallimi nomi bilan mashhur bo‘lgan buyuk so‘z san’atkori Adib Ahmad Yugnakiy ham “Hibat ul-haqoyiq” asarida bilim haqida quydagi so‘zlarni keltiradi:

Bilik birla bilnur sa’adat yo‘li,
Bilik bil sa’adat yo‘lini bula.

(Bilim bilan saodat yo‘li ochiladi, (shunga ko‘ra) ilmli bo‘l, baxt yo‘lini izla). [3, 10-b.]

Xalqlar o‘rtasida bilimli va bilimsiz, boy va kambag‘al, dono va nodon kishilar bor. Ammo haqiqiy rahbar bo‘lish uchun bilim va odob zarur.

O‘tgan tarixdan ma’lumki, odamlarning eng katta merosi – ularning ezgu nomlari va yaxshi ishlari. O‘zidan keyin yaxshilik va odillik bilan nom qoldirgan kishi, haqiqatan ham, mangu yashaydi. El-yurtga xizmat qilish, xalq uchun naf keltirish, haqiqat va adolat yo‘lida yurish – mana shular insoniyatni ulug‘lovchi fazilatlardir.

Tirik oxir o‘lar qora yer quchib,
Nom ezgu esa-chi, ketarmi o‘chib?!

Ezgularning nomi buyuk bo‘ladi, yomonlar nasibi esa qarg‘ish va so‘kishdan boshqa narsa bo‘lmaydi. Bunga tarixdagi quyidagi hodisa juda yaxshi misoldir:

Nedan bo‘ldi Zahhok so‘kishga duchor,
Faridunga nechun omad sazovor. [4, 20-b.]

“Qutadg‘u bilig” insonning ezgu ishi va yaxshi nomi undan keyin ham yashashini ta’kidlaydi. Adolatli va saxovatli bo‘lgan shaxslar tarixda doimo yaxshi nom bilan yodga olinadi. Ularning siyimosi xalq xotirasida saqlanib qoladi. Shu sababli, har bir inson ezgu amallar bilan yashashga intilishi lozim.

Asarda tilning ta’siri va undan to‘g‘ri foydalanish masalasi alohida o‘rin egallaydi. Til donishmandlar uchun qurol, nodonlar uchun esa xavf ekanligi ta’kidlanadi. Shuning uchun inson har bir so‘zini o‘ylab aytishi, ortiqcha gapirishdan tiyilishi kerak.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari turkiy adabiyotning bebafo yodgorligi bo‘lib, unda insoniy fazilatlar, adolat, davlat boshqaruvi va bilimning qadri haqida hikmatli so‘zlar jamlangan. Ushbu asar qadimgi va zamonaviy jamiyat uchun ibrat bo‘luvchi ta’limotlarni o‘z ichiga oladi.

Yusuf Xos Hojib ta’kidlaydiki, bilim inson hayotida eng katta boylikdir. Bilimli inson jamiyatda yuqori o‘rin egallaydi, donoligi bilan el-yurtga naf keltiradi. Asarda bilimning inson kamoloti va jamiyat rivojlanishidagi o‘rni keng yoritilgan. Donishmandlik va zakovat barcha ezgu amallarning asosi ekanligi qayd etiladi.

Asarda adolat davlatning mustahkamligi uchun muhim asos sifatida ko‘rsatiladi. Podshohning adolatli bo‘lishi, xalq manfaatlarini ko‘zlab ish yuritishi davlatning barqarorligi va rivojlanishini ta’minlaydi. Boshqaruvdagagi halollik va odillik xalq farovonligining garovidir.

Rahbarlik va boshqaruv faqat kuch bilan amalga oshiriladigan ish emas. Haqiqiy yetakchi xalq manfaatini ko‘zlab harakat qiladi, uning ehtiyojlari bilan hisoblashadi. Baxtli jamiyat qurish uchun rahbar saxovatli, adolatli va halol bo‘lishi lozim. Baxil va adolatsiz boshqaruv jamiyatga zarar keltiradi, xalqni g‘azablantiradi va nihoyat barbod qiladi.

XULOSA

Yaxshilik qilish – insonning eng ulug‘ burchidir. Har kim jamiyatga naf keltiruvchi ish bilan shug‘ullansa, halol yashasa va boshqalarga ham yordam bersa, bu dunyoda haqiqiy saodatga erishadi. Ezgulik uchun tirishgan inson mangu yashaydi, zero uning ishlari va nomi unutilmaydi.

Tarixiy haqiqat shuki, insonlar bir-biriga yordam bergan,adolat va bilimni hurmat qilgan jamiyat doimo gullab-yashnaydi. Ezgulik va adolat yo‘lidan yuradigan kishi xalq va davlat uchun beba ho boylik hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir inson o‘z hayotini ezgu ishlarga bag‘ishlashi lozim.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari insoniyatga ibrat bo‘luvchi beba ho durdir. Bilim, adolat, insoniylik va ezgulik tamoyillariga asoslangan ushbu asar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Shu sababli, har bir kishi ushbu hikmatlardan ibrat olib, o‘z hayotida qo‘llashi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. – T.: “O‘zbekiston”, 2022. – B-56.
2. Yusuf Xos Hojib Qutadg‘u bilig: (“Saodatda eltuvchi bilim”)/Yusuf Xos Hojib; [Hozirgi O‘zbek tilida bayon qiluvchi va so‘zboshi muallifi Boqijon To‘xliyev]. – Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – B-15.
3. Adib Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq (She’riy tabdilni amalgalashuvchi, so‘zboshi va izohlar muallifi: E.Ochilov). - T.: “Sharq”, 2013. – B-10.
4. Yusuf Xos Hojib Qutadg‘u bilig: (“Saodatda eltuvchi bilim”)/Yusuf Xos Hojib; [Hozirgi O‘zbek tilida bayon qiluvchi va so‘zboshi muallifi Boqijon To‘xliyev]. – Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – B-20.